XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING

QARORI

2024 - yil 11 - mart VI-76-20-11-160-K/24 Toshloq tumani hokimligi

Toshloq tumani mahalliy budjetining 2024-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi” qonunga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi tuman hokimligining takliflarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman mahalliy budjetining 2024-yil yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar miqdori ilovaga muvofiq tadbirlarni amalga oshirish uchun yo‘naltirilsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (K.Umarov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Qurbonov), tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (D.Ganiyev)larga:

-mazkur qarorga muvofiq mablag‘larni maqsadli sarflanishi va o‘z vaqtida moliyalashtirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining talablari asosida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlarini kiritish;

-ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish

natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablalarni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralari ko‘rilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetini shakillantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Djo‘raboyev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (K.Umarov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Djurabayev**

Xalq deputatlari Toshloq tuman
Kengashining
2024-yil 11-martdagi
VI-76-20-11-160-K/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2024-yil yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

№	Mablag‘ oluvchi tashkilot, muassasa nomi	Mablag‘ yo‘naltirish maqsadi	Mablag‘ miqdori (ming so‘mda)
1	Toshloq tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi 132- sonli qaroriga asosan tumandagi “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘ yo‘nalirish uchun	152 000.0
2	Toshloq tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145- sonli qaroriga asosan tumandagi “Ayollar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘ yo‘naltirish uchun	152 000.0
3	Toshloq tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora tadbirlari to‘risida”gi PQ-5216-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-oktabrdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab quvvatlashga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 656-sonli qarori	137 500.0
4	Toshloq tuman hokimligi	Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, Davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha hokim maslaxatchisi rag’batlantirish uchun	5 600,0
5	Toshloq tuman hokimligi	Tuman hokimligi huzuridagi Ijtimoiy ko‘nikma markazi bosh mutaxassisiga rag’batlantirish uchun	3 300,0
6	Toshloq tuman hokimligi	Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbariga 1-chorak (yanvar, fevral, mart) oylari uchun oylik ish haqining 50 foiz miqdoridagi ustamasi uchun	5 000,0

7	Toshloq tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi PQ -3042-sonli qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-7-may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi yig‘ilish bayonining 18-bandiga asosan tuman xokimligi ishchi hodimlarini ish samaradorligini oshirishda ish xaqlariga qo‘shimcha ustamalar to‘lash xarajatlari uchun	193 300,0
8	Toshloq tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi PQ -3042-sonli qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-7-may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi yig‘ilish bayonining 18-bandiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati ishchi hodimlarini ish samaradorligini oshirishda ish haqlariga qo‘shimcha ustamalar to‘lash xarajatlari uchun.	17 000,0
9	Toshloq tuman hokimligi	Majburiy ijro byurosi Toshloq tuman bo‘limining talabnomalariga asosan qarzdorliklarni bartaraf etish uchun	42 300,0
	Jami yo‘naltirilgan mablag‘lar		**708 000,0**